

EKOLOGIK HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING MUQARRARLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Dilfuza Kutlimuratova

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti Yuridika fakulteti 3-kurs studenti

dilfuzakutlimuratova5@gmail.com

ORCID: 0009-0004-9259-6426

Miraddin Tursinbaev

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti Insan huquqlari, mámleketlik huquq hám
basqariw kafedrası assistenti

motursinbaev@gmail.com

ORCID: 0009-0002-4596-9803

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20604031>

Annotatsiya: Bugungi kunda O'zbekiston va butun dunyoda ekologik muammolar, jumladan, atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi, chiqindilar muammosi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kuchayib bormoqda. Shu sababli ekologik huquqbuzarliklar soni ham ortib bormoqda, bu esa javobgarlik institutining samaradorligini oshirishni talab etadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ekologik nazorat organlari tomonidan minglab huquqbuzarliklar aniqlanmoqda. Masalan, chiqindilarni noqonuniy tashlash, daraxtlarni ruxsatsiz kesish va havoni ifloslantirish holatlari eng ko'p uchraydigan huquqbuzarliklar sirasiga kiradi. Ushbu tezisda ekologiya huquqining markaziy yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan normalarning buzilishi va buning uchun belgilangan javobgarlik choralarining samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ekologik huquqbuzarlik, ekologik zarar, ekologik xavfsizlik, ma'muriy javobgarlik, fuqorolik-huquqiy javobgarlik, jinoyiy javobgarlik.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega"[1], deya ta'kidlangan, bu normaning Konstitutsiyada belgilanishi ekologik sohani yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi bevosita davlat majburlov choralarining adolatliligi bilan chambarchas bog'liqdir. Konstitutsiyaning 20-moddasiga kiritilgan mutanosiblik prinsipiga kora, insonga nisbatan qo'llaniladigan davlatning huquqiy ta'sir choralari qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli va unga mutanosib bo'lishi shart. Ekologiya huquqida bu poydevor norma huquqbuzarga nisbatan qo'llanilayotgan sanksiya miqdori yoki jazo turi aynan tabiatga yetkazilgan jismoniy hamda biologik zararining og'irlik darajasiga qat'i mos kelishini talab etadi. Shuningdek, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ehtiyotkorlik ahamiyatli rol o'ynaydi, chunki tabiat resurslaridan oqilona foydalanmaslik ularga zarar yetkazish va ifloslantirish kelajak hayotiga katta xavf tug'diradi. Bunnan tashqari yer sayyorasining qiyofasini tez o'zgartirishga, unga tuzatib va to'ldirib bo'lmaydigan ziyon yetkazishga sabab bo'lmoqda. Albatta buning barchasi ekologik huquqbuzarlikka olib keladi bu esa nafaqat tabiiy reurslar balki hayvonot va o'simlik dunyosiga katta zarar yetkizadi.

Ekologik huquqbuzarliklar – bu atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qonunchilik talablarining buzilishi bo'lib, ular tabiatga, inson salomatligiga hamda jamiyat manfaatlariga zarar yetkazadi. Bunday huquqbuzarliklar qatoriga havoni ifloslantirish, suv resurslarini noqonuniy ishlatish, yerlarning degradatsiyasi, o'rmonlarni kesish va biologik xilma-xillikka

zarar yetkazish kabi holatlar kiradi. Nazariy jihatdan, ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning asosi xalqaro miqyosda e'tirof etilgan va O'zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilingan ifloslantiruvchi to'laydi tamoyiliga tayanadi. Qonunchilikka ko'ra [2], atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik va unga zarar yetkazganlik uchun haq to'lash jismoniy hamda yuridik shaxslarni tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishdan ozod etmaydi. Ushbu tamoyil huquqbuzarlik iqtisodiy jihatdan ham javobsiz qolmasligini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasida ekologik huquqbuzarlik uchun javobgarlik turlari belgilangan asosan intizomiy, fuqoroviy, ma'muriy va jinoyiy javobgarlik hisoblanadi. Ekologik huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan quyidagi intizomiy jao choralari qo'llanilishi mumkin:

1) hayfsan;

2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solinishi hollari nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarimani ushlab qolish ish beruvchi tomonidan Mehnat kodeksining [3] 269 va 270-moddalari talablariga rioya etgan holda amalga oshiriladi;

3) mehnat shartnomasini bekor qilish (Mehnat kodeksi 161-moddasi ikkinchi qismining 4 va 5-bandlari).

Ekologiya huquqbuzarliklari uchun ma'muriy javobgarlik – Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda belgilangan, atrof tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi, huquqqa xilof, aybli ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik – ekologik ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan vakolatli davlat organi yoki mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy-protsessual tartibda qo'llanadigan yuridik javobgarlik turi [4]. Shuni ta'kidlash joizki, ma'muriy javobgarlikni amaliyotda uzluksiz ta'minlash ekologik nazorat organlarining joylardagi mintaqaviy yurisdiksiyasiga bevosita bog'liqdir. Amaldagi Qoraqalpog'iston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"[5]gi Qonunining 9-moddasiga hamda institutsional islohotlarga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi kabi mintaqaviy ijro etuvchi organlar huquqbuzarliklarni aniqlash, dalillarni to'plash va mustaqil ma'muriy ish yuritish bo'yicha maxsus vakolatlarga ega. Ularning to'g'ridan-to'g'ri faoliyati hududlarda sanksiyalarning o'z vaqtida, tezkor va muqarrar qo'llanilishining asosiy institutsional kafolati bo'lib xizmat qiladi [16].

Yuridik doktrinada ekologik-ma'muriy javobgarlik instituti faqatgina qonunni buzganlik uchun jazo emas, balki huquqbuzarning ekologik ongini o'zgartirishga xizmat qiluvchi majburlov chorasi sifatida talqin qilinadi. Ekologiya huquqi fanining yirik namoyandasi, professor O.S. Kolbasovning ilmiy yondashuviga ko'ra [6], ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi faqat davlatning huquqni qo'llash mexanizmi bilan emas, balki sanksiyalar tizimining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan huquqbuzar uchun o'ta noqulay bo'lishi, yashirin huquqbuzarliklarga nisbatan "nol toqatsizlik" rejimining o'rnatilishi bilan kafolatlanishi lozim.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, shuningdek, zarar yetkazilganda (delikt) kelib chiqadi. Ushbu javobgarlik chorasi, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida keng qo'llanilishi bilan tavsiflanadi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik quyidagi to'rt shart bajarilgan taqdirda qo'llanadi:

1) haqiqiy to'g'ridan to'g'ri zarar;

2) huquqqa xilof xulq-atvor;

3) huquqqa xilof xulq-atvor va yetkazilgan zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanish;

4) huquqbuzarning aybi. Bunda ekologik zararni qoplashning o'ziga xos xususiyati shundaki, atrof-muhitga o'ta xavf tug'diruvchi faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar (masalan, yirik sanoat korxonalarini) yetkazilgan zarar uchun o'z aybidan qat'i nazar javobgar bo'ladilar. Ular javobgarlikdan faqatgina zarar yengib bo'lmaydigan kuch yoki jabrlanuvchining qasdi oqibatida kelib chiqqanligini isbotlagan taqdirdagina ozod qilinishi mumkin [7].

Fuqarolik huquqi nazariyasida atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash majburiyati ko'pincha mutlaq javobgarlik instituti doirasida ko'rib chiqiladi. Akademik H.R. Rahmonqulovning delikt majburiyatlariga oid nazariy xulosalariga tayanadigan bo'lsak, yuqori xavf manbai hisoblangan obyektlar tomonidan tabiatga ziyon yetkazilganda, javobgarlikning muqarrarligi aybning mavjudligidan qat'i nazar yuzaga keladi [8]. Ya'ni, zarar yetkazuvchi subyekt faqatgina yengib bo'lmaydigan kuch holatlarini isbotlagandagina javobgarlikdan ozod qilinishi fuqarolik-huquqiy sanksiyalarning ekologik sohadagi o'ta qat'i o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Ekologik jinoyat – jinoyat qonunida ko'zda tutilgan hamda jazo qo'llash tahdidi bilan taqiqlangan oqilona foydalanilishi va muhofaza etilishi insonning barqaror hayot kechirishini ta'minlovchi atrof tabiiy muhit va uning alohida unsurlari, shuningdek, aholi va hudud ekologik xavfsizligiga tajovuz qiluvchi hamda tabiiy obyektlardan huquqqa xilof ravishda foydalanish oqibatida atrof tabiiy muhit holati va salbiy o'zgarishlarga olib keluvchi aybli ijtimoiy xavfli qilmishdir (xatti-harakat yoki harakatsizlik) [4]. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining [9] 198-moddasida ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish kabi harakatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu turdagi jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi shundaki, huquqbuzarlik obyekti nafaqat tabiat, balki jamiyatning ekologik xavfsizligi hisoblanadi. Bunda shuni alohida e'tiborga olish lozimki, Orolbo'yi mintaqasi kabi rasman ekologik inqiroz hududi deb e'lon qilingan zonalarda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning muqarrarlik obyekti yana bir muhim konseptual ahamiyat kasb etadi. Olimlarning ta'kidlashicha, bunday hududlarda yer, suv va bioxilmaxillikka nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklar oddiy ma'muriy qoidabuzarlik emas, balki bevosita mintaqa aholisining genofondi va barqaror qulay muhitga bo'lgan huquqiga qilingan o'ta og'ir tajovuz sifatida kvalifikatsiya qilinishi hamda jazo choralari qat'iylashtirilgan tarzda qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Ekologik huquqbuzarliklar atrof-muhitga yetkaziladigan zarar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular jamiyat barqaror rivojlanishiga jiddiy xavf tug'diradi. Ilmiy-amaliy nuqtai nazardan, ekologik zarar faqatgina tabiat obyektining jismoniy nobud bo'lishi bilan o'lchanmaydi. Qonunchilikka ko'ra [2], yetkazilgan zararni hisoblashda ushbu obyektning qayta tiklash xarajatlari hamda atrof-muhit funksiyalarining vaqtincha yo'qotilishi oqibatida yuzaga kelgan olinmay qolgan daromad ham albatta hisobga olinishi shart. Bunday huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi samarali kurashish uchun huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, nazorat tizimini kuchaytirish hamda fuqarolarning ekologik ongini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Vakolatli davlat organlari bilan bir qatorda, qonunchilikda jamoatchilik ekologik nazorati instituti ham mustahkamlangan. "Ekologik nazorat to'g'risida"[10]gi Qonunga asosan, fuqarolar va nodavlat notijorat tashkilotlari ekologik huquqbuzarlik holatlarini suratga va

videoga olish, dalillarni rasmiylashtirish hamda ularni ko'rib chiqish uchun davlat organlariga taqdim etish huquqiga ega ekanligi yashirin ekologik sanksiyalarning oldini oluvchi muhim omildir. Milliy qonunchilik bilan bir qatorda xalqaro huquq normalari ham mazkur sohada ustuvor omil hisoblanadi. O'zbekiston tomonidan qabul qilingan "Atrof-muhitga oid masalalar yuzasidan axborot olish, qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtiroki va odil sudlovga qatnashish imkoniyati to'g'risida"[11]gi Orhus konvensiyasi qoidalariga asosan, har bir fuqaro atrof-muhitga zarar yetkazayotgan subyektlar ustidan sudga va ekologik ma'muriy organlarga bevosita murojaat qilish huquqiga ega. Ushbu xalqaro standart jamoatchilik bosimi orqali ma'muriy organlarning yurisdiksiyon faoliyatida qonuniylikni ta'minlovchi va javobgarlikning chetlab o'tilishini istisno qiluvchi mustahkam huquqiy mexanizmdir. Javobgarlik muqarrarligini ta'minlashning zamonaviy usuli uni raqamlashtirish bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son [12] Farmoniga asosan, ekologik huquqbuzarliklar sodir etmaslik va sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish maqsadida atmosferaga tashlamalarni onlayn monitoring qilish tizimini joriy etish belgilangan. Bu tizim inson omilini inkor etib, huquqbuzarlikni darhol qayd etish hamda jazo muqarrarligini yashirin tarzda chetlab o'tish xavfini bartaraf etadi. Konstitutsiyaviy va ma'muriy huquq prinsiplari nuqtai nazaridan, muqarrarlikni ta'minlash bevosita davlat organlari faoliyatining ochiqligiga bog'liqdir. Nazariy jihatdan, ma'muriy organlar, xususan ekologiya sohasidagi vakolatli vazirliklar faoliyatiga sun'iy intellekt va smart-boshqaruv texnologiyalarini joriy etish jarimalarni qo'llashdagi inson omilini va korrupsiogen xavflarni tubdan qisqartiradi. Bu kabi raqamli huquqiy vositalar "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"[13]gi qonunda ko'zda tutilgan ishonchlilik va qonuniylik prinsiplarini avtomatlashtirilgan tarzda ro'yobga chiqarib, vazirliklar tizimida ekologik nazoratning mutlaq shaffofligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda javobgarlikni muqarrar qilishning texnologik yechimi sifatida raqamli huquq (LegalTech) vositalari muhim o'rin tutadi. Kiber huquq va sun'iy intellekt yurisprudensiyasi bo'yicha yirik mutaxassis, professor S.S. Gulyamovning nazariy qarashlariga ko'ra [14], davlat nazorati tizimiga sun'iy intellekt va raqamli monitoringni joriy qilish inson omilini inkor etib, korrupsiogen xavflarni tubdan bartaraf etadi. Buni amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 309-moddasida mustahkamlangan qoida ham tasdiqlaydi: ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ish bo'yicha qaror axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida chiqarilishi va ijro etish uchun yuborilishi mumkinligi "Smart-vazirlik" tamoyillarini o'zida ifodalab, atrof-muhitga zarar yetkazganlik bo'yicha jarimalarning yashirin qolib ketishining huquqiy va texnik jihatdan oldini oladi.

Sud-huquq amaliyotida javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash Oliy sud Plenumi qarorlari orqali muvofiqlashtiriladi. Xususan, sudlar atrof-muhitga oid ishlarni ko'rishda faqat jinoiy yoki ma'muriy jazoni tayinlash bilan cheklanmasdan, har bir huquqbuzarlikning sodir etilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlashi hamda tegishli organlarga xususiy ajrimlar chiqarishi orqali profilaktik qamrovni kengaytirishi belgilangan [15].

Xulosa qilib aytganda, ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi atrof-muhitni muhofaza qilishning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, nafaqat jazolash choralari qo'llash, balki profilaktika, ta'lim va targ'ibot ishlarini rivojlantirish orqali ekologik muammolarni kamaytirish mumkin. Bu esa kelajak avlodlar uchun sog'lom va xavfsiz tabiiy muhitni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.12.1992 yildagi 754-XII-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2026-y., 03/26/1143/0450-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2025-y., 03/25/1109/1241-son.
4. Narzullayev, O.X., Nurmatov, M.M. Ekologik-huquqiy javobgarlik [Matn]: darslik / Narzullaev Olim Xolmamatovich, Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 224-b.
5. Tábiyattı qorǵaw haqqında (jańa redakciya) Qaraqalpaqstan Respublikasınıń Nızamı // Qaraqalpaqstan Respublikası Joqarǵı Keńesiniń rásmiy veb-saytı, <https://joqargikenes.uz/qr/documents/21>.
6. Колбасов О.С. Избранное. – М.: РГУП, 2017. Стр. 31-61.
7. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.05.2026-y., 03/26/1144/0467-son.
8. Rahmonqulov H. R. Fuqarolik huquqi. Umumiy qism. Darslik. Toshkent, TDYUnashriyoti, 2019. 400 b.
9. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2026-y., 03/26/1138/0397-son.
10. Ekologik nazorat to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.12.2013 yildagi O'RQ-363-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2025-y., 03/25/1109/1241-son.
11. Конвенция о доступе к информации, участии общественности в процессе принятия решений и доступе к правосудию по вопросам, касающимся окружающей среды [Орхусская конвенция] // Организация Объединенных Наций, https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/orhus.shtml.
12. “O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.01.2025 yildagi PF-16-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2026-y., 06/26/19/0118-son.
13. Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 08.01.2018 yildagi O'RQ-457-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.06.2025-y., 03/25/1070/0536-son.
14. Gulyamov, S. S. (2021). Raqamli huquq: Nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: TDYU. (O'zbekistonda raqamli maxfiylikning huquqiy asoslari).
15. Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 20.12.1996 yildagi 36-son // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/-1442456>.
16. Tursinbaev, M. (2025). Regulatory Activities of Ministries Of The Republic Of

Karakalpakstan: Limits, Procedures, And Legal Consequences. Stanford Database Library of
International Journal of Law And Criminology, 5(12), 58-63.

